Учет поступления и списания с учета основных средств в бюджетных организациях	1010
Абдуллаева Нилуфар Джавдат кизи	
Tijorat banklarida kredit operatsiyalari hisobini takomillashtirish.....	1015
Sa'dullayeva Asaxon Muzaffarovna	
Davlat budjetining soliqsiz daromadlari shakllanishini takomillashtirish yo'llar.....	1018
O'ktamova Nargiza Narzulla qizi	
Sog'liqni saqlash tizimini davlat tomonidan moliyalashtirishning zaruriyati.....	1022
Meliyev Azimjon Murodullo o'g'li	
Oliy ta'lim tashkilotlari faoliyatini boshqarishda ichki audit xizmatining zarurligi	1027
Shaymatova Nargiza Ashurovna	
Hududlarda inklyuziv iqtisodiy o'sishni ta'minlashning nazariy asoslari.....	1032
Tangriberdiyev Sulaymon Kamiljonovich	
Tadbirkorlikni rivojlantirish va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni tashkil etishning nazariy va uslubiy tamoyillari	1038
Farxodjon Inamov	
Xitoy iqtisodiyotidagi to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarga ta'sir etuvchi omillar	1045
Turdiqulov Farrux Ravshanjon o'g'li	



XITOI IQTISODIYOTIDAGI TO'G'RIDAN TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR



Turdiqulov Farrux Ravshanjon o'g'li

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, tayanch doktranti

Annotatsiya: Mazkur maqola Xitoy va Hongkong misolida bugungi kunda uning iqtisodiyotiga jalb qilinayotgan xorijiy investitsiyalarga ta'sir qilayotgan omillarni o'rganadi. Unga ko'ra ushbu mamlakatlardagi jalb qilingan investitsiya hajmini belgilovchi asosiy to'rt xil ko'rsatkichlarni statistikasi ekonometrikaning EKKU modeli orqali o'rganildi. Natijada ushbu ko'rsatkichlar ichida yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'ati (0.06) bilan jon boshiga yalpi milliy mahsulotning o'sish sur'ati (0.04) statistik jihatdan ahamiyatli, deb topildi. Bu o'z navbatida, davlat qay darajadi iqtisodiy rivojlanish imkoniyati ega bo'lsa shunchalik uning to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish imkoniyati ham mavjudligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiya, yalpi ichki mahsulot, tashqi savdo, korruptsiya indeksi.

Abstract: This paper examines the factors affecting foreign investment in China and Hong Kong today. According to it, the statistics of the four main indicators that determine the investment amount in these countries were studied through the OLS econometrics model. As a result, among these indicators, the growth rate of gross domestic product (0.06) and the growth rate of gross national product per capita (0.04) were considered statistically significant. This shows that since the state has the opportunity for economic development, it also has the opportunity to attract foreign direct investment.

Key words: Foreign direct investment, gross domestic product, foreign trade, corruption index.

Аннотация: В данной статье рассматриваются факторы, влияющие на иностранные инвестиции в Китай и Гонконг сегодня. Согласно ему, статистика основных четырех показателей, определяющих объем инвестиций в этих странах, изучалась посредством модели эконометрики МНК. В результате среди этих показателей статистически значимыми считались темпы роста валового внутреннего продукта (0,06) и темпы роста валового национального продукта на душу населения (0,04). Это, в свою очередь, показывает, что, поскольку государство имеет возможность экономического развития, оно также имеет возможность привлечения прямых иностранных инвестиций.

Ключевые слова: Прямые иностранные инвестиции, валовой внутренний продукт, внешняя торговля, индекс коррупции.

KIRISH

Har qanday davlat iqtisodini rivojlanishida aslida juda ko'plab mikro va makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni ta'sir qilishini bilamiz. Lekin bu ishimizda ko'rib chiqish niyat qilingan omil to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar bo'lib, aniqrog'i to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni qanday omillarga ta'sirchan ekanligini Xitoy va uni tasarrufidagi Hongkong maxsus ma'muriy hudud misolida o'rganilish niyat qilingan.

O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi tomonidan e'lon qilingan ma'lumotga ko'ra, O'zbekistonda 2023-yilda jami 22,4 mlrd dollar xorijiy investitsiyalar jalb qilingan bo'lib, shundan 19,5 mlrd dollar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar (193 %) o'zlashtirildi. Davlat investitsiya dasturi doirasida umumiy qiymati 9,4 mlrd dollar bo'lgan 306 ta loyiha ishga tushishi hisobiga 56 mingdan ortiq yangi ish o'rni yaratilishiga erishildi ^[1]. Albatta, O'zbekiston davlati uchun Xitoy va Hongkong tajribalarini o'rganib chiqish investitsion salohiyatimizni yanada oshirib, samarali qiladi degan fikrdaman. Undan tashqari to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish uni hajmini o'stirish uchun qilinadigan asosiy ishlar dandir. Bizning maqolamizda asosan yalpi ichki mahsulot, tashqi savdo, jon boshiga yalpi milliy mahsulot va korruptsiya indeksi olib o'rganildi. Yalpi ichki mahsulot va yalpi milliy mahsulot be'vosita mamlakat iqtisodiy rivojlanish imkoniyatini ko'rsatgani uchun investitsiya jalb qilish imkoniyati sifatida o'rganildi. Tashqi savdo ham qaysidir darajada eksport va import imkoniyati xorijiy investorlarni qay darajada jalb qila olish qobilayagini ko'rsata oladigan ko'rsatkich sifatida o'rganadi. Shuningdek, ohirgi o'zgaruvchi sifatida Korruptsiya indeksi o'rganildi. U qanday indeks? Korruptsiya indeksi mamlakatlardagi davlat sektori tomonidan korruptsiya holatlarni



aks ettiradiga ko'rsatkich bo'lib, uning persentil ko'rsatkichidagi qiymati 0 va 100 ko'rsatkichlari o'rtasida baholanadi. Agar mamlakat korrupsiya indeksi 100 ga yaqinlashsa korrupsiyadan holi, agar qiymat 0 ga yaqinlashsa davlat korrupsiyaga botganligini izohlaydi. Uning ma'lumotlari "Transparency International" tomonidan 13 xil so'rovnomalarni 12 ta turli xil institutlarda o'rganish orqali qayta ishlab taqdim etiladi [2]. Lekin bizning ma'lumot bal standart normal taqsimot birliklarida agregat ko'rsatkich bo'yicha mamlakat ballini beradi, ya'ni uning qiymatlari taxminan – 2,5 dan 2,5 gacha deb hisoblanadi [3].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tadqiqotni o'rganish jarayonida yuqoridagi asosiy omillar ustiga qurilgan tadqiqot mavzuimizga doir quyidagi ba'zi olimlar ishi o'rganib chiqildi. Dastavval, Qamruzzaman tomonidan o'rganilgan ishni o'rganganimizda to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyaga ta'sir etuvchi omillar sirasiga u kishi hukumat effekti-davlat institutlarining barqaror faoliyati iqtisodiy kengayishni sezilarli darajada osonlashtirib, investitsiyalarni jalb qiladi. Shuningdek ta'lim ham mamlakatning innovatsion salohiyatini, uning aholisining mehnat unumdorligini, zamonaviy texnologiyalarni rivojlantirish va shaxslarning yaxshi fuqaro bo'lish qobiliyatini oshirish potentsialiga ega va bu bilimlarning iqtisodiyot bo'ylab tarqalishiga yordam berishi mumkin. Bu mulohazalar o'z navbatida, mamlakatning inson kapitali sifati to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda asosiy omil hisoblanadi [4].

Undan tashqari Ovokiyus boshchiligidagi olimlarning izlanishiga ko'ra intellektual mulk huquqi Xitoyga jalb qilinayotgan to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarini kirib kelishiga ijobiy va statistik jihatdan ahamiyatli darajada ta'siri borligi o'rganildi. Unga ko'ra ular 38 ta davlat doirasida intellektual mulk huquqining to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyaga ta'siri mamlakatning iqtisodiy rivojlanish imkoniyati bog'liq holda farqli ekani tahlili o'rganildi [5].

Keyingi navbatda Metyu Kol boshchiligidagi olimlar tomonidan ishlangan tadqiqot ishlanmasida juda qiziqarli ish ba'zi o'zgaruvchilarni qayta o'rganish ishtiyoqini oshirdi. Xususan, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar yaxshi boshqaruv xususiyatiga ega va korrupsiyaga qarshi kurashda eng faol bo'lgan, provinsiya hokimiyati va korrupsiyaga qarshi sa'y-harakatlarning samaradorligi ko'rsatkichlarini yaratadigan hududlarga jalb qilinganligini e'tiborimizni tortdi. O'tkazilgan regressiya natijalari to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar boshqaruv samaradorligi nisbatan yuqori bo'lgan provinsiyalarga jalb etilayotganini va korrupsiyaga qarshi kurashda faol ishtirok etayotganini tasdiqlagan [6].

Tadqiqot jarayonida ko'rilgan yana bir qiziq jihat, nima uchun ba'zi mamlakatlar qolagan mamlakatlarga nisbatan ko'proq jalb qilish imkoniyatiga egaligi bo'ldi. Alekssandr Pitir Grox guruhi tomonidan tadqiq qilingan mavzu jami 127 mamlakatning to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlari o'rganilgan va uddagi umumiy xulosa qanchalik mamlakat iqtisodiyoti yuqori salohiyatga ega bo'lsa shu darajada uning investitsiyalarni jalb qilish imkoniyati oshar ekan. Bundan tashqari, tadqiqot ishlanmasi mavjud bo'shliqlarni qisqartirish uchun rivojlanayotgan mamlakatlar yaxshilashi kerak bo'lgan sohalarini bayoni berildi [7].

Keyingi tadqiqot ishlanmasi Ruiming Liu boshchiligidagi ilmiy xodimlar tomonidan rivojlanayotgan va o'tish davridagi mamlakatlar ko'pincha to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar uchun turli xil to'siqlarni o'rganadi. Unga ko'ra ushbu kirish to'siqlarining muhim sabablaridan biri mafkuraviy tabulardir. Biroq, bu tabular haqiqatan ham to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimiga ta'sir qiladimi? Xitoyning "madaniy tizim islohoti" dan foydalangan holda, ushbu tadqiqot Xitoyning 1994-yildan 2017-yilgacha bo'lgan 283 tuman darajasidagi shaharlarining panel ma'lumotlaridan va madaniy tizim islohotining mintaqaviy to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarga ta'sirini baholash uchun farqlar usulidan foydalanib tadqiq etishdi. Madaniyat tizimini isloh qilish institutlarni tartibga solish va kirish to'siqlarini olib tashlash orqali to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimini sezilarli darajada rag'batlantirganini va islohot chuqurlashgan sari to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning jozibadorligi asta-sekin o'sib borayotganini aniqlangan [8].

Xitoyning to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar uchun ochiqligi ortib borayotgani uning iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga sezilarli hissa qo'shdi. Xitoyning muvaffaqiyatini tushuntiruvchi omillarning aksariyati boshqa mamlakatlarga to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb qilishda muhim rol o'ynadi: bozor hajmi, mehnat xarajatlari, infratuzilma sifati va hukumat siyosati. To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar va ishlab chiqarish samaradorligini oshirdi, ish o'rinlari va jonli eksport sektori yaratildi. Biroq, Xitoyning muvaffaqiyati ba'zi tuzoqlardan xoli bo'lmadi: soliq imtiyozlarining tobora murakkablashayotgan tizimi va daromadlar bo'yicha mintaqaviy tengsizlikning kuchayishi [9].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda yalpi ichki mahsulot o'sish suratlari, tashqi savdo, jon boshiga yalpi milliy mahsulot o'sish suratlari va korrupsiya ta'sirini o'rganish bo'yicha mavjud bo'lgan tadqiqotlarni o'rganish, statistikaning tasviriy qismi uchun normallik tekshirish uchu Shapiro Vilks testidan, umumiy tasvirit statistic ma'lumotlar jadvalidan, analitik qismi uchun regressiyaning eng kichik kvadrat usuli (EKKU), regressiyadagi gomoskedastlikni tekshirish uchun Bryush-Pegan testi, ko'p tarmoqli kollinearlikni aniqlash



uchun variatsiya inflyatsion omillarini hisoblash testi, avtokorrelyatsiya yo'qligini aniqlash uchun Bryush-Godfri testi va tushib qolgan o'zgaruvchi xatoligini o'rganish uchun Ramseyning RESET testlaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Har qanday tadqiqot ishida to'g'ri spetsifikatsiyali modelni to'g'ri tuzib olish eng asosiy muhim ishlardan biri hisoblanadi. Bilasizki, ekonometrik model tenglamasi be'vosita muayyan iqtisodiy nazariya va eng kamida mantiqqa asoslangan bo'lishlikni talab qiladi. O'rganilgan tadqiqotlardan keib chiqib quyidagi modelni o'rganib hisob kitob qilishni asosiy maqsad qilib olindi:

Modeldagi o'zgaruvchilarni izohlovchi barcha o'zgaruvchilari "Investitsiya", "YalM o'sish sur'ati", "Jon boshiga YaMM" va "Korrupsiya indeksi" statistik ko'rsatkichlari Jahon banki ma'lumotlari omboridan olindi. Modeldagi "investitsiya" tanlanmadagi mamlakat uchun jalb qilingan to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar bo'lib uning qiymati yalpi ichki mahsulotning ulushi, foiz ko'rinishida berilgan va u bizda nomustaqil o'zgaruvchi-regressant vazifasida kelin tadqiqot ishimizda "fdi" nomiga qisqartirilgan. "YalM o'sish sur'ati" esa tanlanmadagi mamlakatning Yalpi Ichki Mahsulot o'sish suratlarining foizdagi ko'rsatkichini izoxlab, bizda u mustaqil o'zgaruvchi, ya'ni regressor "gdp" nomi bilan izoxlanadi. Shuningdek "Tashqi savdo" o'zgaruvchimiz ham mustaqil o'zgaruvchi bo'lib u tashqi savdoni YalMga nisbatan foizdagi ulushini izoxlaydi va tadqiqot ishimizda "trade" nomiga qisqartirilgan. "Jon boshiga YaMM" o'zgaruvchisi ham o'z nomi bilan jon boshiga Yalpi Milliy Mahsulot o'sish suratlarini foizdagi qiymatlari aks ettirib "inc" akkronimiga almashtirilgan. Ohirgi mustaqil regressorimiz korrupsiya indeksi bo'lib uni biz ball qiymatida, "corr" atamasida foydalanamiz.

Statistik ma'lumotlar Jahon banki ma'lumotlar omboridan Jahon rivojlanish indikatorlari bazasidan olindi. Ma'lumotlarni faqatgina Xitoy davlati uchun 1998–2022-yillar kesimida olindi. Ma'lumotlar to'liqsiz panel ko'rinishida yig'ildi.

O'zgaruvchilarning tasviriy statistik ko'rsatkichlari ko'rib chiqqanimizda biz quyidagi ma'lumotlarni olishimiz mumkin bo'ldi. O'rtacha investitsiya ko'rsatkichi 25 ta ma'umotga nisbatan 2.9 foiz va kvadratik o'rtacha tafovuti 1.115 ga teng. Yalpi Ichki Mahsulot o'sish suratlarining o'rtacha qiymati tahminan 8.4 foiz va kvadratik o'rtacha tafovuti 2.6 ga teng ekanligi va tashqi savdo ko'rsatkichining o'rtacha qiymati 45.15 foizga, kvadratik o'rtacha tafovuti 9.9 ga tengligi kelib chiqdi. Bunday tasviriy statistik ma'lumot jon boshiga YaMM o'sish sur'ati o'rta arifmetik qiymati 8.125 foiz, kvadratik o'rtacha tafovuti 3.48 ga va korrupsiya indeksining o'rtacha qiymati -0.381 bo'lib kvadratik o'rtacha tafovuti 0.194 ga tengligi aniqlandi.

1-jadval: O'zgaruvchilarning tasviriy statistik ko'rsatkichlari

Variable	Obs	Mean	Std. Dev.	Min	Max
fdi	25	2.977	1.115	1.003	4.554
gdp	25	8.379	2.594	2.239	14.231
trade	25	45.146	9.862	32.424	64.479
inc	24	8.125	3.481	-.006	14.688
corr	21	-.381	.194	-.618	.03

Manba: muallif tomonidan ishlab chiqildi.

Shuningdek, tasviriy statistikada ma'lumotlar to'plamlarining taqsimot qatori, normal taqsimotga yaqinligi ko'rsatkichlarini tekshirish muhim ahamiyat kasb etadigan bir shartlardandir. Buni amalga oshirishda Stata15 dasturi yordamida o'zgaruvchilarning normalligi tekshirish uchun Shapiro-Vilk testi otkazilganida faqatgina tashqi savdo va korrupsiya indeksidan normallikk xususiyati aniqlanmaganini hisobga olmaganda qolgan barcha o'zgaruvchilarning normalligi mavjudligi aniqlanganini ko'rishimiz mumkin.

2-jadval: O'zgaruvchilarning normalligini tekshirishning Shapiro-Vilk testi

Variable	Obs	W	V	z	Prob>z
fdi	25	0.929	1.974	1.390	0.082
gdp	25	0.958	1.162	0.307	0.379
trade	25	0.903	2.702	2.032	0.021
inc	24	0.984	0.445	-1.653	0.951
corr	21	0.895	2.568	1.906	0.028

Manba: muallif tomonidan ishlab chiqildi.



O'zgaruvchilarimiz soni ko'pligidan ular o'rtasidagi korrelyatsiya ko'rsatkichini ko'rib qo'yish qaysidir darajada muhim ahamiyat kasb etishini ko'rishimiz mumkin. Korrelyatsiya testi o'tkazaganimizda deyarli barcha o'garuvchilar o'rtasida juda kuchli munosabatlar mavjudligi kuzatildi. Xusasa, yalpi ichki mahsulotning o'sish ko'rsatkichi bilan investitsiya o'rtasida juda kuchli(0.84) ijobiy bog'ligi borligi aniqlandi. Eng katta ijobiy bog'liqlik investitsiya va tashqi savdo o'rtasida ekanligi ma'lum bo'lib uning korrelyatsion qiymati 0.92 ekanligi guvohi bo'ldik. Yana bir e'tiborli jihat shu bo'ldiki korrupsiya indeksi bilan deyarli qolgan barcha o'zgaruvchilar bilan salbiy nisbatan kuchli munosabat shakllanganini ko'rdik. Bu o'z navbatida ular o'rtasidagi avtokorrelyatsiya muammosini tabiiy holatda keltirib chiqardi va ekonometrik modelimizda tafovutli ko'rsatkichlar regressiyasini o'tkazish orqali bu muammoni hal qilishga to'g'ri keldi. Natijada ko'p omilli regressiyamizning natijalari o'rganilganda quyidagi regressiya natijalari olindi:

3-jadval: Chiziqli regressiya natijalari

dfdi	Coef.	St.Err.	t-value	p-value	[95% Conf	Interval]	Sig
dgdp	.156	.077	2.03	.061	-.008	.319	*
dtrade	.043	.028	1.54	.143	-.016	.101	
dinc	-.086	.038	-2.24	.041	-.168	-.004	**
corr	-.052	.621	-0.08	.934	-1.376	1.272	
Constant	-.111	.27	-0.41	.686	-.687	.464	

Mean dependent var	-0.079	SD dependent var	0.612		
R-squared	0.545	Number of obs	20		
F-test	4.484	Prob > F	0.014		
Akaike crit. (AIC)	30.373	Bayesian crit. (BIC)	35.352		

*** p<.01, ** p<.05, * p<.1

Manba: muallif tomonidan ishlab chiqildi

Regressiyamiz natijasidan bizga ma'lum bo'ldiki, investitsiya o'zgaruvchisiga ta'siri o'rganilgan o'zgaruvchilar ichida faqatgina ikkita o'zgaruvchining ta'siri statistik jihatdan ahamiyatli deb topildi. Birinchi ahamiyatli topilgan o'zgaruvchi yalpi ichki mahsulot o'sish sur'atining bir foizli o'sishi to'gridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarini 0.156 foizga oshiradi ekan va bu o'z navbatida 0.061 p-qiymati bilan nisbiy statistik ahamiyatli deb toppish mumkin. Ikkinchi o'zgaruvchi jon boshiga yalpi milliy mahsulotning bir foizli o'sishi investitsiya hajmini 0.086 ga kamaytirar ekan va bu ham p-qiymatning 0.041 ko'rsatkichida statistik jihatdan ahamiyatli deb bimalol aytilish mumkin.

Parametr ko'rsatkichlari yaxshi natijalari har doim ham yetarli natijani keltirib chiqaravermasligidan, biz ba'zi Gauss-Markov shartlarni ko'rib chiqishimiz maqsadga muvofiq hisoblanadi. Xususan, regressiya uchun gomoskedastlik shartini ko'rib chiqish uchun Bryush-Peygan testi o'tkazilganda p qiymati 0.22 chiqqanligi modelda gomoskedast xatolik ko'rsatkichlari gipotezasini rad etolmasligi ma'lum bo'ldi bu esa o'z navbatida model geteroskedast emasligini ko'rsatadi.

Breusch-Pagan / Cook-Weisberg test for heteroskedasticity

Ho: Constant variance

Variables: fitted values of edu

chi2(1) = 1.52

Prob > chi2 = 0.2178

Tahlil jarayonida bizda ko'p omilli regression tahlil o'tkazayotganimiz uchun keying ko'rilishi kerak bo'lgan shart ko'p tarmoqli kollinearlik hisoblanadi. Unga ko'ra ko'p tarmoqli kollinearlikni tekshirish uchun "estat vif" buyrug'i orqali variatsiya inflyatsion omillarini hisoblab chiqildi va natijada barcha o'zgaruvchilarda qiymat o'ndan kichik bo'lgani uchun ko'p tarmoqli kollinearlik muammosi yo'q deb xulosa berish mumkin.



Variable	VIF	1/VIF
dgdp	2.37	0.421196
dinc	2.02	0.493923
dtrade	1.56	0.643035
corr	1.05	0.955324
Mean VIF	1.75	

Gauss-Markov shartlaridan keying ko'rilishi muhim bo'lgan qismi bu avtokorrelyatsiya yo'qligi. Bu shartni tekshirish uchun Bryush-Godfri testini o'tkazib ko'rish maqsaga muvofiq bo'ladi. Yuqorida ta'kidlab o'tilgan o'zgaruvchilar o'rtasida kuchli munosbatlar mavjudligi avtokorrelyatsiya muammosini keltirib chiqarar edi. Tafvutli ko'rsatkichlar regressiyasini o'tkazish natijasida biz muammoni hal qilganimizni Bryush-Godfri testida ham ko'rishingiz mumkin.

Breusch-Godfrey LM test for autocorrelation

chi2	df	Prob>Chi2
0.848	1	0.357
2.332	2	0.312
4.096	3	0.251
7.226	4	0.124
7.615	5	0.179

H0: no serial correlation

Lekin, yana bir shart borki ekonometrik modellarni baholash kuzatiladigab bir xatolik borki, u ham bo'lsa, tushib qoldirilgan o'zgaruvchi xatoligidir. Bu muammoni tekshirish uchun Ramseyning RESET testini o'tkazganimizda bizda tushib qolgan o'zgaruvchi xatoligi yo'qligi ma'lum bo'ldi. Unga ko'ra nol gipotezaning sharti tushib qolgan o'zgaruvchi xatoligi yo'q deb qo'yilgan holatda p-ning 0.5091 qiymatida haqiqatda tushib qolgan o'zgaruvchi xatoligi yo'qligi isbotlandi.

Ramsey RESET test using powers of the fitted values of edu

Ho: model has no omitted variables

F(3, 26) = .82

Prob > F = 0.5091

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu maqolada Xitoyda to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilinishiga ta'sir etish omillari o'rganildi va o'z oldiga qo'yilgan maqsadga empirik tahlillar asosda ma'lum qadar erishildi deb aytilish mumkin. Tadqiqot jarayonida ma'lum bir xulosalar yasaldi. Xususan, Xitoy uchun 1998–2022-yillar oralig'idagi statistik ma'lumotlarini qayta ishlab, EKKU regressiyasini o'tkazish bilan to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyaga ahamiyatli darajada ta'sir etuvchi ikki xil o'zgaruvchini qayta ishladi. Ular, yalpi ichki mahsulotning o'sish hajmi p-qiymatning 0.061 darajasida va jon boshiga yalpi milliy mahsulotning ulushi p-qiymatning 0.041 darajasida ahamiyatli bo'lib chiqdi. Bu raqamlar bizga qanday umumiy xulosa va takliflarni berishi mumkin deyilganda, birinchi yalpi ichki mahsulotning o'sish darajasi be'vosita mamlakat qanchalik iqtisodiy o'sish imkoniyatiga ega bo'lsa shunchalik u investitsiyalarni jalb qilishga jozibador bo'ladi. Ikkinchi jihati qay darajada mahalliy aholini qo'lida pul taqsimoti kattalashib boradigan bo'lsa shunchalik tashqi xorijiy investitsiyalarning tortilishi sustlashib boradi. Bu degani davlatda aholining be'vosita xorijiy investitsiyalar fonidagi faoliyatlardan daromadlanish davlat iqtisodiy o'sishida ijobiy ta'sir ko'rsatishi xulosasini olishimiz mumkin.

**Manba va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Sanoat va savdo vazirligi, "Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi tomonidan 2023-yilda erishilgan ayrim natijalari to'g'risida ma'lumot." [Online]. Available: <https://gov.uz/miit/news/view/7414/>
2. Transparency International, "Corruption Perceptions Index 2022: Full Source Description", [Online]. Available: https://transparencia.org.es/wp-content/uploads/2023/01/CPI2022_SourceDescription-1.pdf
3. T. W. Bank, "Metadata Glossary." [Online]. Available: <https://databank.worldbank.org/metadataglossary/worldwide-governance-indicators/series/CC.EST>
4. M. Qamruzzaman, "An asymmetric nexus between clean energy, good governance, education and inward FDI in China: Do environment and technology matter? Evidence for chines provincial data," Heliyon, vol. 9, no. 5, p. e15612, 2023, doi: 10.1016/j.heliyon.2023.e15612.
5. T. O. Awokuse and H. Yin, "Intellectual property rights protection and the surge in FDI in China," J. Comp. Econ., vol. 38, no. 2, pp. 217–224, 2010, doi: 10.1016/j.jce.2009.10.001.
6. M. A. Cole, R. J. R. Elliott, and J. Zhang, "Corruption, governance and FDI location in China: A province-level analysis," J. Dev. Stud., vol. 45, no. 9, pp. 1494–1512, 2009, doi: 10.1080/00220380902890276.
7. A. P. Groh and M. Wich, "Emerging economies' attraction of foreign direct investment," Emerg. Mark. Rev., vol. 13, no. 2, pp. 210–229, 2012, doi: 10.1016/j.ememar.2012.03.005.
8. R. Liu, Y. Kang, and J. Zhang, "Ideological taboos, entry barriers, and FDI attraction: Evidence from China," J. Asian Econ., vol. 76, no. July, p. 101365, 2021, doi: 10.1016/j.asieco.2021.101365.
9. W. Tseng and H. Zebregs, "FDI in China: Some Lessons for Other Countries," International Monetary Fund Policy. pp. 1–26, 2002. [Online]. Available: <https://www.imf.org/external/pubs/ft/pdp/2002/pdp03.pdf>

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.